

**O‘ZBEK RAQS SAN’ATINING SHAKLLANISH JARAYONIDA
MILLIY RAQS SAN’ATI VAKILLARINING O‘RNI**

Doulov Ulug‘bek Hayitboyevich

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy raqslariga hissa qo‘shgan ustoz-san’atkorlar, o‘zbek milliy raqslarida ustoz-shogird an’analari, shuningdek, milliy raqslarni ijro etishning ahamiyati, sahna raqslarining jozibasi va o‘zbek raqsi fidoyilarining merosi va o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: xoreografiya, baletmeyster, ustoz va shogird an’anasi, milliy raqs.

Abstract: In this article, the master-artists who contributed to Uzbek national dances, the tradition of master-disciple in Uzbek national dances, as well as the importance of performing national dances, the charm of stage dances, and the heritage and characteristics of Uzbek dance devotees are reflected.

Key words: choreography, ballet master, master and student tradition, national dance.

Аннотация: В этой статье мастера-художники, внесшие вклад в узбекские национальные танцы, традиция мастера-ученика в узбекских национальных танцах, а также важность исполнения национальных танцев, очарование сценических танцев, а также наследие и особенности узбекского танца. преданные отражаются.

Ключевые слова: хореография, балетмейстер, мастерская и ученическая традиция, национальный танец.

Raqs - bu inson hayoti va dunyosini o‘rganishning badiiy usuli demakdir. O‘zbek xalqining beqiyos boyligi hisoblanmish ushbu go‘zal va nozik raqsar tengsiz va takrorlanmasdir. O‘zbek raqs san’ati nihoyatda rang-barang va turli janr va shakllarda tarkib topgan bo‘lib, o‘ziga xos ijrosi, yorqin ifodaliligi va mazmuni bilan ajralib turadi. Ushbu raqs san’atining shakllanishida o‘zbek raqs maktablarining o‘rni beqiyosdir.

O‘zbek raqs maktablari raqs san’ati yanada mukammal o‘zlashtirilgan ustoz va shogird an’alarida rivojlanmoqda. Milliy merosimiz, qadriyatlarimizning bugungi kungacha saqlanib qolishining asosiy mezonlari ustoz-shogird an’asidir.

Uzoq tarixga ega o‘zbek raqs san’atining rivojlanishida raqs ustalarining o‘rni beqiyos. Ustoz san’atkorlar Madrahim Sheroziy Yoqubov, Zarif Latipov, Karim Ollaberganov, Karimjon Rahimov, Yusuf Jabbor, San’at Latipov, Onajon Sobirova, Otamurod Bekchonov, Marat Jumaniyozov, Roviya Atajanova va boshqalar o‘zbek

madaniyati va raqslarini dunyoga keng tanitganlar¹. Ushbu san’atkorlar yaratgan ijro maktablari orqali biz bugungi kunda durdona san’at asarlari bilan keng tanishishimiz mumkin.

Zarif Latipov 1914-1984-yillarda yashab ijod qilgan serqirra ijodkor hisoblanadi. El orasida mashhur sozanda, raqqos sifatida tanilgan Zarif Latipov 1914-yil 5-mart kuni Xiva tumanining Oqyop qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi. Tabiatan sho‘x Zarifboy yoshligidan masxarabozlik o‘yinlariga qiziqqanligi bois Xiva bozoridagi qush sozandalar davrasini tomosha qilish uchun Xivaga keluvchi edi. Xivaning musiqiy muhiti doston, suvora, xalfa qo‘shiqlari maroqli aytishuvlari Zarifboyni san’at chamaniga yetakladi.

Bo‘lg‘usi san’atkor dastlab Xivadagi musiqa maktabida, keyinchalik 1930-1933-yillarda Toshkentdagi Sharq musiqa texnikumida skripka sinfi bo‘yicha ta‘lim olgan. Uning mehnat faoliyati 1933-yilda Xorazm viloyat teatrida boshlangan².

U dastlab ansamblda sozanda 1935-yildan to 1959-yilgacha Xiva teatrida badiiy rahbar bo‘lib ishlagan. 1959-yildan Viloyatda teatrlari faoliyati tugatilgach, to 1974-yilgacha Xiva teatri asosida tashkil topgan xalq teatrida rejissor bo‘lib faoliyat yuritgan. Zarif Latipovning baletmeyster, sifatidagi faoliyati O‘zbekiston xalq artisti Komiljon Otoniyozov tomonidan tashkil qilgan Xorazm ashula va raqs ansamblida, keyinchalik Toshhovuz, Shovot ansambllarida davom qilgan.

1951-yili Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston adabiyoti va san’ati dekadasida O‘zbekiston xalq artisti Mahmudjon Safaev hamkorligida “Fozoni” yani “Sulgun” o‘yinini sahnalashtirib Katta opera va balet teatri sahnasida Xorazm raqs san’atini namoyish qilganlar. Shu yili Zarif Latipov faxriy yorlig‘i bilan mukofotlangan. Ustozi Safo akadan doira chalish san’atini o‘rgangan, Zarif ota yaxshi doirachi ham bo‘lgan. Shogirdlaridan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar: Gavhar Matyoqubova, Malohat Matchanova, farzandlari San’at, Ozod, Uktam, Obod, Latipovlar musiqani kasb qilib, hozirgi kunda shu sohada faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

Z.Latipov Maqom uforining barcha murakkab usullari formulalarini qayroq raqsining barcha asosiy shakllarini qo‘llagan holda aniq ijro eta olardi, oyoq uchlarining ikki tomonga ochilish qobiliyati o‘rtadan balandroq edi, mushaklarini sekin o‘tirish va chuqur pliye paytlarida mohirona o‘ynatar edi. O‘sha-o‘sha Maqomlarni erkin qo‘llar usulida ijro etar ekan, u “asosiy” qo‘l harakatlarining turli-tuman ko‘rinishlarini shakllantirish imkoniyatlarini qo‘llagan. Uning raqs-o‘yini tez yugurishlar, oyoqlarni galma-galdan orqaga tashlash, keskin o‘tirishlar va argoncha” usulidagi harakatlari bilan ajralib turgan. Buning ustiga Latif Zarifov Gul ufori

¹ L.Avdeyeva, O‘zbek milliy raqs tarixidan, Toshkent, 2001,42 bet.

² S.Sobirova, X.Solayev “Xiva bulbullari”-Xiva.2000-y.71b.

guruhidagi raqslarni ham maromiga yetkazib ijro etardi. Ayniqsa, uning ijrosidagi raqs-masallar juda ta’sirchan chiqqan, ularda raqqos tasviriy-ruhiy harakatlar orqali betakror yumor va bir vaqtning o’zida aktyorlik zavqi bilan jonivorlar va parrandalar dunyosining insonlarda uchraydigan qiliqlarini o’xshatar edi. Tustovuq o’yini shunday raqslarga misol bo’la oladi. Bu raqs juft bo’lib ijro etiladi: “raqiblar yuzma-yuz, cho’kkalagan holda xavotirli, asabiy sakrab-sakrab harakat qiladilar. Duelchilar ziyrak bo’lib turadilar, raqibning har bir harakati ikkinchisining ham javoban harakatini keltirib chiqaradi, bo’yin umurtqalari faol ishlab turadi. Mana, xo’rozlar to’qnashdi: cho’qqayib o’tirgan holda baland-baland sakrab, go’yo raqibini o’rab olmoqchi bo’lgandek, davra bo’ylab harakatlanadi va davraning markazida yotgan doirani qo’lga kiritishga intiladi. Raqiblar doiraga tashlanib, uni ikki chetidan ushlab oladilar. Shunda doirani to’la qo’lga kiritish maqsadida turli chalg’ituvchi harakatlar boshlanadi. Doira membranasida tez aytishga o’xshab ketadigan ritmik frazalar chalinadi; bu tovushlar tuzilishi bo’yicha juda kulgili eshitiladi. Umuman raqsning akrobatikasi ham juda qiziq.

L.Zaripov tom ma’noda hayvonlar va parrandalar tashqi qiyofasi va xatti-harakatini raqs orqali ko’rsatib ijro etuvchi mahoratli raqqos bo’lgan.

Xiva san’at maktabida o’qituvchilik qilayotgan San’at og’a otasiga tortgan sho’x shinavanda insondir. Uning aytishicha: Otamiz juda hazilni sevadigan, sho’x kishi edilar. Bir kuni Komiljon Otaniyozovning uyida kiruvchi ustozlar tepada havoza kurib ishlab turgan ekanlar. Shunda Komiljon og’a “Zarif bularga bir gurung topib ber” debdilar. Otamizning “Novvot” degan kulguli bir gurungi bor edi. Otam shu latifani so’zlab yarmiga kelganda kulgusidan qornini tutib, ustalardan biri, uzini to’xtatolmay tepadan pastga yikilib tushibdi. “Tez yordam” mashinasida kelgan tabib? Nima bo’ldi? degan savoliga Komiljon og’a “Zarif manglayi ko’ra bir kuladigan gap topib bizlarni ustadan ayirvadi» deb javob bergan ekan. Jahonga tanilgan “Xiva vaqti bilan soat 7” kinofilmining musiqaviy rahbari bo’lib faoliyat yuritgan. O’zbek san’atining yorqin namoyandasi Zarif Latipov 1984-yili vafot etdi.

Karimjon Rahimov 1917-yil 6-noyabrda Xiva shahrida ishchi oilada tug’ilgan. U raqqos, aktyor, rejissor, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Karimjon Rahimov yoshlik paytlaridan san’atga, xususan, raqs san’atiga ixlos quyib, turli xil xalq sayillarida eldoshlari orasida mashhur raqqos sifatida tanilgan.

San’atga bo’lgan qiziqishi sababli 1937-yili Hamza teatri qoshidagi drama studiyasini tugatgan. Ma’rifatparvar shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy tashabbusi bilan viloyatlarda ham teatr truppalari tashkil qilish an’anasining davomi sifatida joylardan yosh, iqtidorli bolalarni teatr truppalari jalb qilish ishlari natijasida Karimjon

Rahimov ham truppga taklif qilingan. Natijada Xivada tashkil etilgan teatr truppasida faoliyat yuritgan³.

1940-yilda Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatriga ishga qabul qilinib, turli xil rollarni o‘ynashi bilan birgalikda spektakl va turli tomoshalar uchun raqs sahnalashtiradi. 1937-1990-yillarda Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrida ishladi. U teatrdan raqqoslik qilish bilan birga bir qancha spektakllarda esda qolarli obrazlar ham yaratdi: Hamzaning “Boy ila xizmatchi” dramasi, Domla, “Maysaraning ishi”da Hidoyatxon, I.Sulton Uyg‘unlarning “Alisher Navoiy” dramasi, Mansur, V.Shillerning “Makr va muhabbat”ida Vurm, Abdulmo‘minovning “Shikoyatga o‘rin yo‘q” asarida Niyoz, S.Jamolning “Guli siyoh” spektaklida Mulla Bashir, U.Shekspirning “Hamlet” tragediyasida Qirol, H.G‘ulomning “Toshbolta va oshiq”da Imom va boshqa bir qancha rollarni ijro etgan. Karimjon Rahimov rejissor sifatida “Chin muhabbat” (O.Yoqubov), “Tog‘a- jiyonlar” (R.Bobojon), “Paranji sirlari” (Hamza), “Oshiq G‘arib va Shohsanam” (Y.Yusurov) kabi spektakllarni sahnalashtirgan.

Xorazmning Qo‘shko‘pir va Yangiariq tumanlarida ansambllar tuzgan. Ana shunday spektakllardan biri ya‘ni, “Maysaraning ishi” spektaklida Xidoyatxon rolini ijro etgani uchun davlat rahbari Yo‘ldosh Oxunboboyev e‘tiboriga tushib, 1941-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoni beriladi. 1964-yil “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni bilan mukofotlangan. 1966-yilda teatr sahnasida “Gamlet” spektakli sahnalashtiriladi. San‘at Devanov, Madrim Bobojonovlar bilan birgalikda Karimjon Rahimov Qirol rolini o‘ynaydi. O‘zbek san‘atining yorqin namunasi Karimjon Rahimov 1991-yilda vafot etgan.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020-yil 5-fevraldagi “Milliy raqs san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq bugungi kunda o‘zbek milliy raqs san‘atiga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgardi. Mamlakatimizda milliy va umumbashariy ahamiyatga molik milliy raqs san‘atini yanada yuksak mavqega ko‘tarishga xizmat qiladigan, tarixiy ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy raqsimiz millat tarixini, ruhiyati, orzu-umidlari va armonlarini aks ettiradigan san‘at namunasi hisoblanadi. Uning tarixini o‘rganish xalqning urf-odatlarini, an‘analarini, buguni va kelajagini o‘rganish, tadqiq qilish demakdir⁴.

San‘atkorlarimiz sa‘y-harakati milliy raqs millatning o‘zligini, qadim orzu-umidlarini aks ettirishini yoshlarga tushuntirish milliy raqsalarimizni bebaho madaniy merosimiz, mamlakatimizning tashrif qog‘ozlaridan biri sifatida asrab-

³ S.Sobirova, X.Solayev “Xiva bulbullari”-Xiva.2000-y.75b.

⁴ E.Saitova, N. Abraykulova. Xoreografiya va raqs san‘ati asoslari.”Fan va texnologiya” nashriyoti. Toshkent 2015 y. 11-13betlar.

avaylashga qaratilgan. Shuningdek, o‘zbek raqs san’atini targ‘ib qilishga, iste’dodli talabalarning xorijdagi nufuzli oliy dargohlarda tahsil olishlariga, bu borada xalqaro aloqalarni kuchaytirishga alohida e’tibor berilmoqda. Ayni kunlarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida Moskva davlat lingvistika universiteti bilan o‘zaro hamkorlik haqida shartnoma tayyorlanmoqda. Zero, milliy raqs san’atining madaniy hayotimizdagi o‘rnini belgilash, uning yo‘qolib borayotgan turlarini tiklash va noyob namunalarni asrab-avaylash, yanada rivojlantirish, dunyo miqyosida tanitish, targ‘ib qilish va raqsshunoslarning ilmiy va ijodiy yo‘lini chuqur o‘rganish eng ustuvor vazifalardan biridir.

Milliy raqs va xalq ijodiyotini rivojlantirish, yosh iste’dod egalarini aniqlash maqsadida 2 yilda bir marta “Lazgi” xalqaro festivali Xivada o‘tkazilib kelinmoqda. Bundan tashqari, har yili M.Turg‘unboeva nomidagi respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish vazifa qilib belgilandi. Lo‘nda qilib aytganda, butun mamlakat bo‘yicha raqs ijodkorlarini birlashtirish, davlat va xalq ansambllari faoliyatini yo‘naltirish, raqs havaskorligi harakatini yanada kuchaytirish, yigitlar raqsini izga solish, an’anaviy raqs ijro uslublarini asrab-avaylash asosida yangidan yangi raqslar yaratish, unutilgan qadimiy raqslarni, harakatlar va holatlarni tiklash, raqs ta’limini yaxshilash, raqs tarixini o‘rganish, milliy raqslarni yozib olishning eng qulay uslubini ishlab chiqish va joriy qilish, raqs san’ati tanqidi va targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish, raqsshunoslar, raqs muallimlari va baletmeysterlarning baquvvat zahirasini vujudga keltirish kabi vazifalarni bajarish uchun qonuniy va tashkiliy asos yaratildi. Bugun biz g‘urur bilan aytishimiz mumkin, bizda dunyo folklori namunalari bilan bimalol bellasha oladigan qo‘shiq va raqslarimiz bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.Avdeyeva, O‘zbek milliy raqs tarixidan, Toshkent, 2001,42 bet.
2. T.Qilichev- “Xorazm xalq teatri” T.2000-y 186b.
3. S.Sobirova, X.Solayev “Xiva bulbullari”-Xiva.2000-y.71b.
4. E.Saitova, N. Abaykulova. Xoreografiya va raqs san’ati asoslari.”Fan va texnologiya” nashriyoti. Toshkent 2015 y. 11-13betlar.
5. KHOREZM FOLKLORE DANCE: THE HISTORY OF THE FIRE GAME (ppublishing.org)
6. ROVIYA ATADJANOVA XORAZM RAQSI MALIKASI – тема научной статьи по Гуманитарные науки читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка (cyberleninka.ru)
7. XORAZM VOHASINING “SURNAY LAZGI”SI, SURNAY CHOLG‘USI TARIXI HAQIDA MULOHAZA | Новости образования: исследование в XXI веке (nauchniyimpuls.ru)